

## **“Kelajak soati” darsining oliy ta’lim muassasalari uchun mashg‘ulot ssenariysi:**

### **34-mavzu: “Mening oilam”**

**Annotatsiya:** Ushbu darsning maqsadi talabalarga oilaning tarkibi, a’zolari, ularning vazifalari va o‘zaro munosabatlari haqida bilim berish, shuningdek, nutq va yozma ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Dars interfaol metodlar, jumladan, juftlik va guruh mashg‘ulotlari, o‘yinlar, matn tuzish va taqdimot shaklida tashkil etiladi. Talabalar dars davomida o‘z oilalari haqida fikr almashish, matn yozish va guruhda taqdimot qilish orqali amaliy ko‘nikmalarini oshiradilar.

**Umumiy maqsad:** Talabalarga oilaning tarkibi va a’zolari, ularning vazifalari, oiladagi o‘zaro munosabatlar haqida bilim berish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

#### **Aniq maqsadlar:**

Talabalar oilaga oid so‘z va iboralarni mustahkamlaydi.

Talabalar o‘z oilalari haqida matn tuzish va taqdim etish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Talabalar guruh va individual ish orqali kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Talabalar o‘z fikrini mantiqiy va to‘liq ifodalay olishni o‘rganadilar.

**Asosiy g‘oya:** Oila shaxs va jamiyatning asosiy elementi sifatida ahamiyatlidir.

#### **Kutiladigan natijalar:**

Talabalar oilaning tarkibi va funksiyalarini tushunadi.

Talabalar o‘z fikrini aniq va mantiqiy ifodalay oladi.

Guruh ishlarida faol ishtirok etadi va o‘zaro hamkorlik qila oladi.

Talabalar oilaviy qadriyatlar va an’analarni tushunadi va tahlil qila oladi.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

**Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

## I. KIRISH

**Pedagog:** Assalomu alaykum, aziz talabalar. Bugungi mavzumiz oila haqida. Kelinglar, darsimizni bir qiziq savol muhokamasidan boshlaymiz. Sizningcha, bugungi yoshlar oiladan uzoqlashyaptimi yoki aksincha, oilaga yaqinlashyaptimi?

*Auditoriyada turli javoblar paydo bo'ladi.*

- Uzoqlashyapti.
- Yo‘q, shunchaki zamon o‘zgargan.
- Oldingidek bog‘liqlik yo‘q.
- Hozir hamma mustaqillikni xohlaydi.

**Pedagog:** Yana bitta savol. Agar insonda pul bo‘lsa, yaxshi ish bo‘lsa, erkinlik bo‘lsa, lekin uni ich-ichidan tushunadigan yaqin insonlari bo‘lmasa, u o‘zini baxtli his qila oladimi?

*Talabalar fikr bildiradi.*

**Pedagog:** Qiziq tomoni shundaki, bugungi yoshlarning eng katta ichki ziddiyatlaridan biri aynan shu. Bir tomondan mustaqillikni xohlashadi. Ikkinchi tomondan esa ruhiy tayanchga ehtiyoj sezishadi. Bir tomondan “meni nazorat qilishmasin” deydi, boshqa tomondan “meni tushunadigan odam kerak” deydi.

Ayniqsa talabalik davrida inson oiladan biroz uzoqlashadi. Kimdir boshqa shaharda o‘qiydi, kimdir yotoqxonada yashaydi, kimdir ota-onasi bilan kamroq gaplasha boshlaydi. Inson oilaning qadrini ko‘pincha undan uzoqlashganda tushunadi.

Bir narsaga e‘tibor berganmisiz? Inson kayfiyati juda tushib ketganda, kasal bo‘lganda yoki hayotdan charchaganda ko‘pincha “uyga ketgim kelyapti” deydi. Nega? Nega Parijga emas, Dubayga emas, aynan uyga ketgisi keladi?

*Auditoriyada jimlik paydo bo'ladi.*

**Pedagog:** Fikrlaringizda jon bor. Uy deganda inson devorni emas, hissiy xavfsizlikni tushunadi. Oila – insonning birinchi psixologik himoya hududidir.

Bugun biz oilani oddiy “qarindoshlar tizimi” sifatida emas, inson ruhiyati, jamiyat va kelajak bilan bog‘liq murakkab fenomen sifatida ko‘rib chiqamiz. Nega bugungi yoshlar ba‘zan oiladan uzoqlashadi? Nega ayrim insonlar tashqaridan mehr qidiradi? Mustahkam oila aslida nima ustiga quriladi? Nega zamonaviy dunyoda oila mavzusi yanada muhim bo‘lib bormoqda?

## II. ASOSIY QISM

**Pedagog:** Bugungi kunda yurtimizda oilani mustahkamlash, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, onalar va bolalar salomatligini himoya qilish, uy-joy, ta‘lim va bandlik masalalariga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa Prezidentimiz tomonidan oila jamiyatning eng muhim tayanchi sifatida alohida ta‘kidlanib, yoshlar uchun munosib hayot sharoiti yaratish, oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash davlat

siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirildi. Hozir shu mavzuga oid videorolikni tomosha qilamiz.

## **Vizual kontent**

### **Oila – muqaddas qadriyat**

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/587](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/587)

**Pedagog:** Ko‘rdingizmi, bugungi islohotlarning markazida inson va uning oilasi turibdi. Chunki mustahkam oila bo‘lmasa, sog‘lom jamiyatni qurib bo‘lmaydi. Davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar esa oilalarning yanada barqaror, yoshlarning esa kelajakka ishonch bilan yashashiga xizmat qilmoqda.

*Pauza.*

Insoniyat tarixida oila tasodifan paydo bo‘lmagan. Eng qadimgi davrlardayoq inson yolg‘iz yasholmasligini tushungan. Dastlab bu tirik qolish uchun kerak bo‘lgan. Keyinchalik esa hissiy, ijtimoiy va ma‘naviy ehtiyojga aylangan.

Zamonaviy dunyo insonni juda tez individualizmga olib kirmoqda. “Faqat o‘zingni o‘yla”, “hech kimga bog‘lanma”, “mustaqil bo‘l” degan g‘oyalar ko‘paymoqda. Lekin inson psixologiyasi boshqa narsani aytyapti. Psixologiyada “*emotional safety*” degan tushuncha bor, ya‘ni hissiy xavfsizlik. Inson o‘zini xavfsiz his qiladigan hududga muhtoj. Ko‘pchilik uchun bu hudud oiladir.

Nima uchun ayrim yoshlar muammosini oilasiga emas, internetdagi notanish odamga aytadi?

*Talabalar javob beradi:*

- Chunki oilada tushunishmaydi.
- Chunki qo‘rqadi.
- Chunki begona odam hukm qilmaydi.

**Pedagog:** To‘g‘ri. Lekin bu yerda juda nozik nuqta bor. Tashqaridagi hamma “tushunish” samimiy emas. Ba‘zan inson hissiy bo‘shliq sabab manipulyatsiyaga tushib qoladi. Kimdir shirin gap bilan ishonchga kiradi. Kimdir “meni faqat sen tushunasan” degan gaplar bilan odamni hissiy bog‘lab qo‘yadi.

Bugun internet orqali yoshlarni aldash, hissiy qaramlikka tushirish, toksik munosabatlarga tortish juda osonlashgan. Nega? Chunki ko‘pchilik ichida eshitilmaganlik hissi bor.

Bir narsani ochiq tan olish kerak: bugungi oilalarda muloqot kamaymoqda. Hamma bir uyda, lekin har kim o‘z telefonida. Kechki ovqat payti ham suhbat yo‘q. Ota ishda charchagan. Ona band. Farzand telefonda. Natijada bir uy ichida yashab turib ham hissiy uzoqlik paydo bo‘lyapti.

## **Refleksiya mashqi**

**Pedagog:** Hozir hammangiz bir savolga javob bering. Oxirgi marta oilangiz bilan telefonsiz, shoshilmasdan, samimiy suhbatlashganingiz qachon edi?

*Auditoriya javob beradi yoki jim bo'lib qoladi.*

**Pedagog:** Mana shu javoblarning (jimlikning) o'zi bugungi mavzuning eng katta refleksiya. Chunki inson oilani yo'qotib qo'ygach emas, undan hissiy uzoqlashgach, yolg'izlikni his qila boshlaydi.

*Pauza.*

**Pedagog:** Nikoh tomonlarning o'zaro roziligi bilan tuziladigan jamiyatning asosiy bo'g'ini. Nikoh masalalarida huquqiy bahslar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, O'zbekistonda nikoh shartnomasi hali uncha mashhur emas, yoshlar e'tibor bermaydi. Lekin aslida bu shunchaki mulkiy masalalarni xotirjam hal qilishga va ortiqcha tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradigan vosita.

Soha mutaxassislari nikoh shartnomasi yuzasidan eng ko'p beriladigan savollarga javob berdi.

## **Vizual kontent**

### **Nikoh shartnomasi nima uchun kerak?**

[https://youtu.be/aABY3\\_OAvnM](https://youtu.be/aABY3_OAvnM)

**O'qituvchi:** Endi bir savol. Nega insoniyat texnologiya rivojlangan davrda ham oiladan voz kecha olmayapti?

*Talabalarning fikrlari tinglanadi.*

**Pedagog:** Abdulla Qodiriy o'z asarlarida oilaviy qadriyatlarimizni yuksaklarga ko'targan yozuvchi. Bu yil uning "O'tkan kunlar" romani yozilganiga 100 yil to'ldi. Shu munosabat bilan Marg'ilonda "O'tkan kunlar"ning bosh qahramonlaridan biri Kumushbibi yashagan ramziy uyning ochilish marosimi bo'ldi. Kelinglar, hozir Marg'ilondagi o'sha uyga sizlarni taklif qilaman. Uyni sizlarga Kumushbibining o'zi ko'rsatadi.

## **Vizual kontent**

### **Marg'ilondagi Mirzakarim qutidor hovlisidamiz**

[https://youtu.be/u-7Oq8qZn\\_8](https://youtu.be/u-7Oq8qZn_8)

**Pedagog:** Nega "O'tkan kunlar" oradan yuz yil o'tsa ham qadrlanmoqda? Chunki bu asar faqat sevgi haqida emas, balki oila, sadoqat, hurmat va insoniy munosabatlar haqida hamdir. Abdulla Qodiriy oilaning inson hayotidagi o'rnini juda chuqur tasvirlagan. Shu sababli bugun ham Otabek va Kumush obrazlari odamlarning qalbiga yaqin. Chunki zamon o'zgarsa ham, inson uchun mehrlil oila, ishonch va sadoqatning qadri o'zgarmaydi.

## **Birinchi keys**

**Pedagog** Kelinglar, bir vaziyatni tahlil qilamiz.

“Talaba qiz boshqa shaharda o‘qiydi. U internetda bir yigit bilan tanishadi. Yigit uni juda yaxshi tushunayotgandek tuyuladi. Lekin u manipulyator yoki abyuzer bo‘lishi mumkin. Albatta, buni ochiq ko‘rsatmaydi. Ammo qizning hayotida juda katta o‘rin egallaydi. Uni har daqiqa tergaydi, faqat o‘ziga e‘tibor qilishga undaydi. Qiz asta-sekin oilasi bilan kamroq gaplasha boshlaydi. Onasi xavotir oladi. Qizga telefon qilib savollar beradi. Qiz esa “uydagilar meni tushunmaydi” deb o‘ylaydi.”

Savol:

- Bu vaziyatda asosiy muammo nimada?
- Qiz haqmi yoki onasi?
- Agar siz shu qizning do‘sti bo‘lsangiz, nima maslahat bergan bo‘lardingiz?

*Talabalar fikr bildiradi.*

**Pedagog:** Ko‘rdingizmi, muammo faqat internetda emas. Muammo – hissiy bo‘shliqda. Agar inson oilasida eshitilmasa, tashqaridan eshitadigan odam qidiradi.

Shuning uchun mustahkam oilaning asosiy poydevorlaridan biri – muloqot.

### **Oila – bir umr davom etadigan jamoa**

**Pedagog:** Biz ko‘pincha oilani hissiyot deb o‘ylaymiz. Aslida esa oila – murakkab tizim. Unda rollar, mas‘uliyatlar, hissiy aloqalar va vazifalar mavjud.

Ota va ona oilaning boshqaruvchilari hisoblanadi. Ular faqat “ota-ona” emas, balki menejer ham. Moliyaviy barqarorlik, xavfsizlik, tarbiya, hissiy muhit – bularning hammasi boshqaruv talab qiladi.

Farzandlar esa oilaning eng katta investitsiyasi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onalar ba‘zan ortiqcha xavotir qiladi. Chunki ular sizning buguningiz emas, ertangi taqdiringiz haqida o‘ylaydi.

Sizningcha, ota-onaning qattiqqo‘lligi ko‘pincha nimadan kelib chiqadi? Nazorat qilish istagidanmi yoki qo‘rquvdanmi?

*Talabalar bahslashadi.*

**Pedagog:** Haqiqat shundaki, ko‘p ota-onalar ideal emas. Ular ham charchaydi, qo‘rqadi, xato qiladi. Lekin baribir farzandi uchun kuyinadi.

Talabalik yoshida bitta xavfli stereotip paydo bo‘ladi: “Meni hech kim tushunmaydi.” Aslida esa ba‘zan bizning o‘zimiz ham ota-onamizni tushunishga urinmaymiz.

### **Interaktiv element: “Ikki stul”**

Auditoriyadan ikki talaba chiqadi.

Birinchisi – “farzand”, ikkinchisi – “ota yoki ona” rovida bo‘ladi.

### **Vaziyat:**

Farzand tungi payt uyga kech qaytadi. Ota-onasi ketma-ket qo‘ng‘iroq qiladi. Farzandning jahli chiqadi.

Talabalar ikki tomonni himoya qiladi.

**Pedagog:** Shu vaziyatda siz qaysi tomonning ichki qo'rquvini his qildingiz?

*Bu savol orqali hissiy empatiya ochiladi.*

### **Oila va muvaffaqiyat**

**Pedagog:** Oilada har bir inson bir-biri bilan nafaqat qon orqali, balki majburiyat va tuyg'ular orqali bog'langan bo'ladi. Ota va ona oilaning boshqaruvchilari hisoblanadi. Ular oila degan katta loyihani yuritadi. Farzandlarning xavfsizligi, ta'limi, sog'ligi, kelajagi uchun har kuni qaror qiladi. Farzandlar esa bu loyihaning eng muhim qismi hisoblanadi.

Shuning uchun ham sog'lom oilada har bir a'zo bir-birining muvaffaqiyati uchun harakat qiladi. Otaning mehnati farzand uchun xizmat qiladi. Onaning mehri oilani birlashtiradi. Farzandlarning yutug'i esa ota-onaning eng katta mukofotiga aylanadi.

Kelinglar, shu o'rinda birgalikda, bir-birini qo'llab hamkorlik qilgan mashhur juftliklar haqida ma'lumot beruvchi videoni tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

#### **Tarixda iz qoldirgan juftliklar**

<https://youtu.be/qJHdukhHwbw>

**Pedagog:** Sizningcha, yolg'iz yashagan odam kuchliroqmi yoki uni qo'llab-quvvatlaydigan oilasi bor odammi?

*Talabalar javob beradi.*

**Pedagog** Yana bir muhim masala. Bugun ko'pchilik muvaffaqiyatni faqat pul bilan o'lchayapti. Lekin hayotiy tajriba boshqa narsani ko'rsatadi.

Ko'p muvaffaqiyatli insonlarning ortida kuchli hissiy tayanch bo'ladi. Chunki inson tashqarida jang qilishi uchun ichkarida suyanadigan joyi bo'lishi kerak.

Ayrim insonlar juda boy bo'ladi, lekin ichki yolg'izlikdan qocholmaydi. Ayrim insonlarning esa katta boyligi yo'q, lekin oilasi bilan baxtli. Qiziq tomoni shundaki, uzoq muddatli ruhiy barqarorlik ko'proq ikkinchi toifadagi insonlarda uchraydi.

### **Ikkinchi keys**

“Bir yigit juda muvaffaqiyatli biznesmen bo'ldi. Lekin oilasiga vaqt ajratmadi. Yillar o'tib farzandlari undan uzoqlashdi. Bir kuni u katta uyida yolg'iz qolganini his qildi.”

Savol:

- Sizningcha, u muvaffaqiyatlimi?
- Hayotdagi haqiqiy muvaffaqiyat nimada?

*Talabalar javob beradi.*

**Pedagog:** Hayotdagi haqiqiy muvaffaqiyat faqat natijada emas, uni kim bilan baham ko'rayotganingizda ham.

Baxtli oila tasodifan paydo bo‘lmaydi. Uni har kuni qurish kerak bo‘ladi. Bir-birini tinglash bilan, vaqt ajratish bilan, mas’uliyat bilan, sabr bilan.

Keling, hozir shunday baxtli oilalardan biri haqidagi videolavhani tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

#### **Ikki buyuk sulola tutashgan oila**

<https://youtu.be/Fk-Pp2PpAOs>

**Pedagog:** Videodan guvohi bo‘lganingizdek, oilada bir-bini tushunishga urinish juda muhim. Oila muqaddas, uni qadrlash va asrash kerak.

#### **Kelajakdagi oila haqida refleksiya**

**Pedagog:** Hozir ko‘zingizni yuming va 10 yil keyingi hayotingizni tasavvur qiling. Siz qanday oilani xohlaysiz? Uyingizdagi muhit qanday? Farzandingiz sizdan qo‘rqadimi yoki sizga ishonadimi? Uyda telefon ko‘pmi yoki suhbat?

*Talabalar javob berishadi.*

**Pedagog:** Demak, sizning kelajakdagi oilangiz qanday bo‘lishi bugungi qarashlaringiz va odatlaringizga bog‘liq. Bugun ularni to‘g‘rilang.

### **III. YAKUNIY QISM**

**Pedagog:** Bugun biz oilaga oddiy maishiy tushuncha sifatida emas, insonning ruhiy va ijtimoiy tayanchi sifatida qaradik. Zamonaviy dunyoda texnologiyalar ko‘paymoqda, lekin insonning mehrga bo‘lgan ehtiyoji kamaymayapti.

Insonning eng katta boyligi faqat diplom yoki daromad emas. Uni kutadigan, tushunadigan va qabul qiladigan insonlari borligidir.

Mustahkam oilalar tasodifan paydo bo‘lmaydi. Ular har kuni quriladi. Oddiy suhbat bilan. E’tibor bilan. Tinglash bilan. Sabr bilan.

Balki bugun darsdan keyin ota-onangizga birinchi bo‘lib o‘zingiz qo‘ng‘iroq qilarsiz. Balki anchadan beri aytilmagan “rahmat”ni aytarsiz. Balki birinchi marta ularni faqat ota-ona emas, oddiy inson sifatida tushunishga harakat qilarsiz.

Bugundan boshlab “15 daqiqa jonli suhbat” chellenjini boshlaymiz. Bir hafta davomida har kuni oilangiz bilan kamida 15 daqiqa telefonsiz suhbat qiling. Faqat tinglang. Savol bering. Hol-ahvol so‘rang.

Va bir haftadan keyin bitta savolga javob bering: “Men oilamni aslida qanchalik bilaman?”

Shu bilan bugungi darsimiz o‘z nihoyasiga yetdi. Xayr, salomat bo‘ling.